


XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumot)**

2021- yilning yanvar-dekabr oyalarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovechilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 773,8 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 15,0 % ga oshdi.

O'rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 2 166 ta korxona va tashkilotlarda 204,8 ming kishini tashkil qildi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi, foizda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, yanvar-dekabr oylari)


№	Iqtisodiy faoliyat turlari	O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni, ming kishi			Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - jami, mlrd. so'm		
		2020- yil	2021- yil	o'sish, foizda	2020- yil	2021- yil	o'sish, foizda
1	Sanoat	37,3	40,3	108,0	1 718,1	1 892,2	110,1
2	Qurilish	0,9	0,9	100,0	31,8	23,5	73,9
3	Savdo	2,9	1,8	62,1	77,7	48,1	61,9
4	Tashish va saqlash	2,4	2,4	100,0	45,9	51,9	113,1
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat	0,1	0,1	100,0	1,3	1,0	76,9
6	Axborot va aloqa	0,9	0,9	100,0	25,5	31,9	125,1
7	Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3,9	3,9	100,0	252,6	335,5	132,8
8	Ta'lim sohasi	86,2	91,6	106,3	2 030,1	2 522,0	124,2
9	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi	38,6	37,6	97,4	823,4	985,5	119,7
	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2,1	2,1	100,0	39,7	48,9	123,2
11	Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasi	24,6	23,2	94,3	649,2	781,3	120,3
	Viloyat bo'yicha jami	199,9	204,8	102,5	5 695,3	6 721,8	118,0

2021- yilning yanvar-dekabr davrida o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan xodimlar soni ko‘rsatkichi bo‘yicha eng katta o‘sish sanoat sohasida (8,0 % ga o‘sish) va eng kam pasayish savdo sohasida (37,9 % ga kamayish) kuzatildi.

Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar ko‘rsatkichi bo‘yicha esa eng katta o‘sish bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (32,8 % ga o‘sish) va eng kam pasayish savdo sohasida (38,1 % ga kamayish) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, foizda

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



■ O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

■ Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar - jami

■ O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan xodimlar soni

Shahar va tumanlar kesimida asosiy mehnat ko'rsatkichlari
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, yanvar-dekabr oylari)

№	Hudud	O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni, ming kishi			Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - jami, mlrd so'm		
		2020- yil	2021- yil	o'sish, foizda	2020- yil	2021- yil	o'sish, foizda
	Andijon viloyati	199,9	204,8	102,5	5 695,3	6 721,8	118,0
<i>shaharlar:</i>							
1	Andijon sh.	61,5	60,8	98,9	2 104,4	2 491,2	118,4
2	Xonobod sh.	4,8	4,7	97,9	149,7	158,9	106,1
<i>tumanlar:</i>							
3	Oltinko'l	9,4	8,1	86,2	169,2	196,8	116,3
4	Andijon	13,2	13,5	102,3	301,7	342,8	113,6
5	Baliqchi	10,0	10,4	104,0	189,8	231,7	122,1
6	Bo'ston	4,7	5,1	108,5	94,1	114,3	121,5
7	Buloqboshi	6,4	6,5	101,6	130,5	149,3	114,4
8	Jalaquduq	7,6	8,1	106,6	170,2	205,1	120,5
9	Izboskan	9,7	9,5	97,9	200,9	250,0	124,4
10	Ulug'nor	4,2	4,2	100,0	86,8	98,5	113,5
11	Qo'rg'ontep'a	9,8	12,3	125,5	211,6	305,8	144,5
12	Asaka	22,8	23,6	103,5	1098,3	1199,3	109,2
13	Marhamat	7,9	8,5	107,6	161,8	192,0	118,7
14	Shahrixon	12,5	12,0	96,0	271,8	323,3	118,9
15	Paxtaobod	8,1	9,0	111,1	184,8	245,7	133,0
16	Xo'jaobod	7,3	8,5	116,4	169,7	217,1	127,9

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlarisiz, ming so'm)





Sanoat sohasidagi 67 ta korxonada 40,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,7 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 1 892,2 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 28,2 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 912,3 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga o‘sdi.

Qurilish faoliyat turidagi 10 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 23,5 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,3 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 2 256,5 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 20,9 % ga pasaygani kuzatildi.



Savdo faoliyat turidagi 20 ta korxonada 1,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 48,1 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 2 192,6 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga pasaygani kuzatildi.

Tashish va saqlash faoliyat turidagi 12 ta korxonada 2,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 51,9 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 1 802,0 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 13,4 % ga o‘sdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

sohasidagi 2 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1,0 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 339,4 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 22,6 % ga o'sdi.



Axborot va aloqa sohasidagi 9 ta korxonada

0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 31,9 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 821,3 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 23,8 % ga o'sdi.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik

iqtisodiy faoliyat turidagi 25 ta korxonada 3,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 233,3 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,0 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 6 725,5 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 31,3 % ga o'sdi.



Ta'lif sohasi iqtisodiy faoliyat turidagi

1 505 ta korxonada 91,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,7 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 2 522,0 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 37,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 295,4 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 17,0 % ga o'sdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi 77 ta korxonada 37,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 985,5 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 14,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 186,7 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 22,9 % ga o'sdi.




San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasidagi 70 ta korxonada 2,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 48,9 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 929,3 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 20,8 % ga o'sdi.

Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi 370 ta korxonada 23,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,3 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 781,3 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 11,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 796,4 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 27,0 % ga o'sdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 6 725,5 ming so'mni tashkil etdi. Shuningdek, yuqori ko'rsatkichlar sanoat faoliyat turida (3 558,8 ming so'm) va axborot va aloqa faoliyat turida (2 759,4 ming so'm) kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa tashish va saqlash faoliyat turida kuzatildi va 1 663,0 ming so'mni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz,
ming so‘mda)**



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (3 859,3 ming so‘m), Andijon shahrida (3 306,9 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.


**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati
(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)**



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
 (2021- yil yanvar-dekabr oylarida; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz,
 ming so‘mda)

	2020- yil	2021- yil	O‘sish sur’ati, %
Andijon viloyati	2 411,2	2 773,8	115,0
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	2 941,4	3 507,2	119,2
Xonobod sh.	2 625,5	2 868,6	109,3
<i>tumanlar</i>			
Oltinko‘l	1 509,9	2 045,5	135,5
Andijon	1 912,0	2 123,5	111,1
Baliqchi	1 587,1	1 849,7	116,5
Bo‘ston	1 651,5	1 874,7	113,5
Buloqboshi	1 706,5	1 972,8	115,6
Jalaquduq	1 878,7	2 105,1	112,0
Izboskan	1 733,3	2 215,0	127,8
Ulug‘nor	1 715,0	1 953,8	113,9
Qo‘rg‘ontepa	1 789,9	2 089,4	116,7
Asaka	4 049,7	4 282,2	105,7
Marhamat	1 749,8	1 888,7	107,9
Shahrixon	1 818,3	2 241,8	123,3
Paxtaobod	1 913,9	2 268,3	118,5
Xo‘jaobod	1 939,2	2 132,3	110,0

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining
viloyat ko'rsatkichiga nisbatan o'sish sur'ati**
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida, qishloq xo'jaligi va kichik
tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (4 282,2 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 54,4 % ga yuqori), Andijon shahri (3 507,2 ming so'm, 26,4 % ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Baliqchi tumani (1 849,7 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 33,3 % ga past) va Bo'ston tumani (1 874,7 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 32,4 % ga past) da kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil sentabr oyidan **822 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021- yil 17-avgustdaggi PF 6279-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

